

Alimova Dilnoza Bobirovna

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Tillar fakulteti O’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi 304-guruh talabasi

Atabayeva Go’zal Farhodovna

O’qituvchi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning nodir asarlaridan hisoblangan “Arba’in” asari haqida ma’lumot hamda hadislarning tahlilini qilamiz.*

Kalit so’zlar: *Alisher Navoiy, hadis, “Arba’in” asari, Abdurahmon Jomiy, tahlil, tarjima sharhi, muqaddima.*

Alisher Navoiy ijodining poydevori Islom dini ahkomlaridir. Shu sababli buyuk mutafakkir asarlarida, olimlar xayoti bilan bog’liq ibratli hikoyalari ko’p uchraydi. Ko’p kitoblari Allohga xAMD-sonalar, salavotlar, bilan boshlanadi. Bundan tashqari Xazrat Navoiy bevosita diniy mavzularda ham asarlar yozgan. Ularda dinni anglash, uning talablarini to’g’ri bajarish, halol va harom, savob va gunohni ajrata bilish kabi masalalar yuksak badiiy mahorat bilan aks ettirilgan. Bunday qimmatli asarlar sirasiga “Vaqfiya”, “Arba’in”, “Siroj ul-muslimin”, “Munojot”, “Risolai tiyr andoxtan” kabilarni keltirishimiz mumkin. Yuqorida tilga olganimiz – “Arba’in” asari musulmonlar uchun zaruriy qo’llanma va tarbiyaviy manba bo’lgan xadislar sharhiga bag’ishlangan. Ma’lumki, Alisher Navoiy qalamiga mansub she’riyatning barchasi “Xazoyin ul-maoni” tarkibiga kiritilmagan. Ularning ayrimlari mustaqil asarlar sifatida taqdim etilgan. Ana shunday asarlardan biri “Arba’in”ni misol qilib keltirishimiz mungkin. Musulmon sharqi mumtoz adabiyoti arba’in yozish an’anasini Navoiygacha ham bo’lgan. Arba’in arabcha “arba” ya’ni, “qirq” so’zidan olingan bo’lib, qirqa mashxur, sahih, hadis mazmunini she’riy vaznda, aniqrog’i, bir ruboiyda ifodalash san’atini anglatgan. Bunday asarlar oddiy xalq vakillari hadislar mazmunini oson tushunishi va xotirasida uzoq saqlab qolishi uchun xizmat qilgan. Navoiy zamonida ham butun ulus, xususan, oddiy xalq ommasi arab tilini bilmagan va bu tilda yozilgan manbalarni tushunmagan. Navoiy nima uchun turkey tilde “Arba’in” yozishni niyat qilgan haqida shunday yozadi:

Forsiydonlar aylabon idrok,

Oriy erdi bu naf’idin atrok.

Istadir, bu xalq ham bori,

Bo’lmag’aylar bu naf’din oriy.

Ya’ni, forsiyda so’zlashuvchi ellar xadislar mazmunini o’z tillarida she’riy uslubda yodlab o’rganar, atrok, ya’ni turkey xalqlar esa bu imkoniyatdan bebahra edi. Shu sababli turkey tilli ususlar ham hadislar mazmunini oson va zavqli tushunishi, xotirasida saqlashi uchun tarjimaga qo’l urdim, xadislarni she’rga soldim, deydi xazrat Navoiy.

Buyuk shoir bu asarni tarjima maqomida ko’radi. Chunki u “Arba’in”ni ustozni va piri – ulug’ mutafakkir, fors-tojik adabiyotining ulug’ daholaridan biri Abdurahmon Jomiyning

“Chixl hadis”I ta’sirida yozgan. Navoiy bobo asar debochasida ustozining roziligi va duosini olgani, so’ngra tarjimaga kirishganini aytadi.

“Arba’in” ruboiliali hadislar mazmunini anglashga ko’mak berib, inson ma’naviy dunyosini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi:

Xadis: Man a’ta lillahi va ahabba lillahi va abg’aza lillahi faqodistakmala iymanahu.

Mazmuni: Kim xayr-ehson qilishda, noo’rin joylarga sarf qilmaslikda, yaxshi odamlarni do’st va yomon odamlarni dushman tutishda faqat Allohning roziligini niyat qilgan bo’lsa, demak, u imonini butun saqlaydi.

Kimgakim hubbub bug’zu man’u ato,
Xaq uchun bo’ldi jazm bil oni,
Kim erur Tengri lutfidan komil,
Ahli imon qoshida imoni.

Islom dinida har bir narsada meyorga amal qilish o’qtiriladi, xaddan oshish Yaratganga xush kelmasligi aytildi. Xususan, xayr-ehson qilishda sahovatli bo’lish, lekin bunda ham meyordan chetga chiqmaslik ta’kidlanadi. Chunki me’yoridan oshgan xayr-ehson birinchidan beruvchining manmanligini ko’rsatsa, ikkinchidan ehson oluvchini dangasalik, tanballik va tubanlashishga olib keladi.

“Arba’in” “qirqta” degani bo’lib, iste’molda qirqta saylanma hadisdan iborat hadis kitoblariga aylanadi. Ana endi xadisnihin tahlilini ko’ramiz:

Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Birortangiz o’ziga ravo ko’rgan narsani birodariga ham ravo ko’rmagunicha mo’min bo’la olmaydi”, dedilar”.

Muttafaqun alayh
Mo’min ermastur, ulki iymondin,
Ro’zg’orida yuz safo ko’rgay,
Toki qardoshig’a ravo ko’rmas –
Xar nekim o’ziga ravo ko’rgay.

Ilymon sharofatidan o’z xayotida behad yaxshiliklar ko’rgan kishi o’ziga nimani ravo ko’rgan bo’lsa, uni qardoshiga ham ravo ko’rmagunicha mo’min emasdir. Bu yerda haqiqiy mo’minlik nazarda tutilishi aytib o’tilgan.

Shunday qilib, Alisher Navoiyningb “Arba’in hadis” yoki “Arba’in” deb ataluvchi asari hadislar misolida muallifning hayot va insoniylikka doir mulohaza va mushohadalarini yaqqol gavdalantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Alisher Navoiy “Mukammal asarlar” to’plami Fanlar akademiyasi Fan Nashriyoti Toshkent.: 1999

1. Alisher Navoiy. Vaqfiya/ Nashrga tayyorlash I.Shamsimuhamedov. Toshkent.: Fan, 1991.

2. Arba’in/ Nashrga tayyorlash Karimbek va Saidbek Hasan: Sharhlovchi A.Rustam. Toshkent.: Meros, 1991.

3. www.ziyonet.uz
4. www.uz.wikipedia.org